



Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-may oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1- iyun holatiga ko'ra, viloyatda 3 894 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 689 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) Urganch shahriga, 471 tasi (12,1 %) Urganch tumaniga, 425 tasi (10,9 %) Xonqa tumaniga, 355 tasi (9,1 %) Qo'shko'pir tumaniga va 276 tasi (7,1 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2026-yilning yanvar-may oylarida 514 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil qilingan bo'lib, ularning 71 tasi Urganch tumaniga, 61 tasi Urganch shahriga, 53 tasi Xonqa tumaniga, 53 tasi Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra





II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 14 557,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	14 557,4	108,0
Urganch shahri	2 182,5	108,1
Xiva shahri	274,4	117,9
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot tumani	316,1	116,2
Gurlan tumani	266,0	113,1
Qo'shko'pir tumani	490,2	115,6
Urganch tumani	832,3	112,1
Hazorasp tumani	415,6	112,8
Tuproqqal'a tumani	5 327,9	97,4
Xonqa tumani	905,3	109,7
Xiva tumani	372,3	110,2
Shovot tumani	649,2	109,1
Yangiariq tumani	485,7	113,7
Yangibozor tumani	486,8	114,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (86 005,3 ming so'm), Urganch shahrida (13 828,8 ming so'm) o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan (7 025,3 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Xiva shahrida (116,1 %), Bog'ot tumanida (114,0 %), Qo'shko'pir tumanida (113,7 %), Yangibozor tumanida (112,8 %), Yangiariq tumanida (111,8 %) va Gurlan tumanida (111,2 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-may oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13 849,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,1 % ni tashkil etgani holda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1,5 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 595,8 mlrd so'm (4,1 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 110,2 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2026-yilning yanvar-may oylarida





III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 58 966,6 tonna paxta tolasi (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 87,3 % oshgan), 2 505,8 tonna o'simlik yog'i (19,9 % ga oshgan), 9 230,3 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (46,3 % ga kamaygan) hamda 35 269 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (9,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may*	2026-yil yanvar-may
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	31 239	38 753	35 269
Maxsus yengil avtomobillar, dona	9 944	16 864	22 532
Paxta tolasi, t	46 433,1	36 943,8	58 966,6
Shakar, t	66 995,6	62 286,4	-
O'simlik yog'i, t	6 674,3	2 089,9	2 505,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	16 742,6	17 176,3	9 230,3
Paxta chigiti, t	68 314,4	60 504,7	86 932,1
Paxtadan yigirilgan ip, t	14 850,9	21 781,0	30 519,1

**2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,5 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2025-yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 116,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,05 % ni (2025-yilning yanvar-may oylarida 0,04 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 37,3 % (39,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,9 % (5,1 %), quyi texnologiyali 52,9 % (51,3 %) ni tashkil etgan.





Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-may oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-may oylarida 35 269 dona " Damas " (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga kamaygan), 22 532 dona maxsus yengil avtomobillari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,6 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil va maxsus yengil avtomobillar, donada
yanvar-may oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-may oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 82,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may*	2026-yil yanvar-may
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	485,0	512,5	424,7
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	485,0	512,5	424,7
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	64,3	91,1	85,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025 -yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 2,2 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 36,9 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 38,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may*	2026-yil yanvar-may
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	8 126 874,0	6 316 582,0	3 986 886,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha	83 715 193,0	82 424 479,0	84 230 914,0



xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	13 561 944,0	23 739 833,0	40 471 437,0
---	--------------	--------------	--------------

**2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarni yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

U.Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

